

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR: O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI SHAFOATXON RAHMATULLAYEVA IJODIY MEROSINING ILMIY- TAHLILIIY TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.042>

Moxiyora Abbosjon-qizi Ibragimova
Umidaxon Boltaboyeva
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: O'zbek milliy madaniyati va san'atining rivojlanish jarayonida teatr va kino san'ati alohida o'rin egallaydi. Bu jarayonda sahna madaniyatini yuksaltirish, milliy xarakter va estetik didni shakllantirishda fidoyi san'atkorlarning hissasi beqiyosdir. Ana shunday zabardast ijodkorlardan biri - O'zbekiston xalq artisti Shafokatxon Rahmatullayeva bo'lib, u o'zining ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida o'zbek teatr va kino san'atiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning hayot yo'li va ijodiy merosi "san'atga baxshida umr" tushunchasini ilmiy jihatdan asoslashga imkon beradi. Mazkur maqolada Shafokatxon Rahmatullayevaning hayoti, teatr va kino san'atidagi faoliyati, yaratgan obrazlarining badiiy-estetik ahamiyati hamda uning ijodiy merosining bugungi san'atshunoslikdagi o'rni ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: san'at, teatr, spektakl, ijod, obraz, kino, ijro

LIFE DEDICATED TO ART: SCIENTIFIC-ANALYTICAL ANALYSIS OF THE CREATIVE HERITAGE OF THE PEOPLE'S ARTIST OF UZBEKISTAN SHAFOATXON RAHMATULLAYEVA

Mokhiyora Abbosjon-kizi Ibragimova
Umidaxon Boltaboyeva
Kokand State University

Abstract: Theater and cinema occupy a special place in the development of Uzbek national culture and art. The contribution of selfless artists to the improvement of stage culture, the formation of national character and aesthetic taste in this process is incomparable. One of such outstanding creators is People's Artist of Uzbekistan Shafokatxon Rahmatullayeva, who has made a significant contribution to Uzbek theater and cinema during her many years of creative activity. Her life path and creative heritage make it possible to scientifically substantiate the concept of "life dedicated to art." This article analyzes the life of Shafokatkhon Rahmatullayeva, her work in theater

and cinema, the artistic and aesthetic significance of her images, and the place of her creative heritage in today's art criticism from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: art, theater, performance, creativity, image, cinema, performance

Shafoatxon Rahmatullayeva 1941-yil 4-yanvarda Farg'ona viloyatida tug'ilgan. U dastlab pedagogik yo'nalishda tahsil olib, keyinchalik san'atga bo'lgan qiziqishi sababli teatr sohasini tanlagan. Oliy teatr ta'limini olgach, professional sahna faoliyatini boshlagan.

Shafoatxon Rahmatullayevaning san'atkor sifatida shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhit va professional teatr ta'limi muhim omil bo'lib xizmat qilgan. U san'atga bo'lgan qiziqishini erta yoshdan namoyon etib, keyinchalik teatr san'ati bo'yicha maxsus ta'lim olgan¹. Bu jarayon uning ijodiy dunyoqarashini kengaytirib, sahna madaniyati, nutq texnikasi va aktyorlik psixologiyasini puxta egallashiga zamin yaratgan.

Aktrisaning ijodiy kamolotida ustoz-shogird an'anasi muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, u o'z davrining yetuk san'atkorlaridan saboq olgan. Natijada Rahmatullayeva sahna qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, obraz yaratishda realizm va milliylik uyg'unligiga erisha olgan. Shafoatxon Rahmatullayeva san'atkor sifatida nafaqat ijrochi, balki pedagogik faoliyat bilan ham ko'p yillar davomida faoliyat yuritib kelgan. U yosh aktyor va aktrisalarga o'z tajribasini, aktyorlik ijro mahoratini, sahna nutqi hamda obraz ustida ishlash metodikasini o'rgatib, teatr ta'limi rivojiga munosib hissa qo'shgan. Sahna madaniyati va san'at etikasi masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Shafoatxon Rahmatullayeva avvalo teatr aktrisasi sifatida tanilgan bo'lib, u o'zbek dramaturgiyasi va jahon adabiyoti asosida sahnalashtirilgan spektakllarda turli xarakterdagi rollarni muvaffaqiyatli ijro etgan. Uning sahnadagi ijrosi psixologik chuqurligi, obrazning ichki kechinmalarini nozik ifodalashi bilan ajralib turadi².

Aktrisa teatr sahnasida turli xarakterdagi obrazlarni muvaffaqiyatli yaratgan. Uning ijrosida ayol obrazlari chuqur ichki kechinmalar, hayotiy haqiqat va badiiy mukammallik bilan ajralib turadi. Shafoatxon Rahmatullayeva dramatik, musiqiy va maishiy janrlarda birdek yuksak mahorat ko'rsatgan.

Aktrisa tomonidan yaratilgan ayol obrazlari, xususan, ona, sadoqatli yor, jamiyatdagi murakkab ijtimoiy vaziyatlarga duch kelgan qahramonlar milliy mentalitet bilan uyg'un tarzda talqin etilgan. Bu holat uning ijodida badiiy ishonchlik va hayotiylikni ta'minlagan. Teatrshunos olimlar Rahmatullayeva ijrosini sahnaviy realizmning yorqin namunasi sifatida baholaydilar³. Aktrisa tomonidan ijro etilgan

¹ O'zbek teatr san'ati tarixi. — Toshkent: San'at nashriyoti.

² Karimov A. Aktyorlik mahorati va sahnaviy realizm. — T., 2016.

³ Qodirov B. O'zbek teatr tanqidchiligi masalalari. — T., 2014.

“Qaynona” spektaklidagi “qaynona” obrazi hali hamon eng go‘zal ijro sifatida e‘tirof etiladi.

Teatr bilan bir qatorda Shafaoatxon Rahmatullayeva kino va televideniye san‘atida ham samarali ijod qilgan. Kino san‘atida ham u o‘ziga xos ijodiy iz qoldirib, milliy kinematografiyada ayol obrazi talqiniga yangi ruh olib kirgan. Uning rollari tomoshabinni fikrlashga undaydi va axloqiy-estetik qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Aktrisa

U ishtirok etgan badiiy filmlar va telespektakllar o‘zbek kinosi rivojida muhim o‘rin tutadi. Aktrisaning ekran obrazlari sahnadagi ijrosidan farqli ravishda yanada ixcham, ammo mazmunan chuqur bo‘lib, tomoshabinga kuchli emotsional ta‘sir ko‘rsatadi¹.

Kino asarlarida u ko‘pincha ijtimoiy-ma‘naviy muammolarni o‘zida mujassam etgan ayol obrazlarini gavdalantirgan. Bu obrazlar orqali jamiyatdagi oilaviy munosabatlar, ayolning jamiyatdagi o‘rni va ma‘naviy mas‘uliyati badiiy talqin etilgan. Shu jihatdan Rahmatullayeva ijodi sotsiologik va madaniy tadqiqotlar uchun ham muhim manba bo‘la oladi². Aktrisa “Masxaraboz”, “Sevginator”, “O‘zimdan o‘zimgacha”, “Er bermoq - jon bermoq”, “Josus kampir” kabi bir qator filmlarda rol ijro etib muhlislari qalbidan chuqur joy olgan.

Bugungi kunda uning ijodiy merosi o‘zbek teatr san‘ati tarixining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganilmoqda. San‘at oliy ta‘lim muassasalarida Rahmatullayeva yaratgan obrazlar aktyorlik mahorati namunasi sifatida tahlil qilinadi.

San‘at sohasidagi xizmatlari uchun Shafaoatxon Rahmatullayeva: 1980-yilda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, 1992-yilda O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari bilan taqdirlangan. Bu mukofotlar uning ijodiy faoliyatiga berilgan yuksak bahodir.

Xulosa. O‘zbekiston xalq artisti Shafaoatxon Rahmatullayeva butun hayotini san‘atga bag‘ishlagan, milliy teatr va kino san‘atining rivojiga munosib hissa qo‘shgan ijodkordir. Uning sahna va ekran orqali yaratgan obrazlari o‘zbek ayolining ma‘naviy qiyofasini badiiy jihatdan yuksak darajada aks ettiradi. Aktrisaning ijodiy merosi bugungi va kelajak avlod san‘atkorlari uchun muhim estetik va ma‘naviy maktab bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, Shafaoatxon Rahmatullayeva ijodini ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish o‘zbek san‘atshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek teatr san‘ati tarixi. - Toshkent: San‘at nashriyoti.
2. Karimov A. Aktyorlik mahorati va sahnaviy realizm. - T., 2016.
3. Qodirov B. O‘zbek teatr tanqidchiligi masalalari. - T., 2014.
4. O‘zbekiston kinosi ensiklopediyasi. - Toshkent, 2018.

¹ O‘zbekiston kinosi ensiklopediyasi. — Toshkent, 2018.

² “Teatr” jurnali, Shafaoatxon Rahmatullayeva ijodiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami.

5. "Teatr" jurnali, Shafotxon Rahmatullayeva ijodiga bag'ishlangan maqolalar to'plami.